

Date: 7<sup>th</sup>January-2025

**TO'QUVCHILIK TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHDA IMKONIYATI  
CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING HAR BIRIGA ALOHIDA YONDASHISH**



**Sultanova Aziza Akmalovna**

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar  
uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum  
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda respublikamizning to'quvchilik sanoati kundan-kunga rivojlanib va taraqqiy etib bormoqda. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan to'quvchilik tovarlari assortimenti kengayib, sifati esa yaxshilanib bormoqda. Ushbu maqolada to'qilgan kiyimlar va uni ishlab chiqarish, toqilgan kiyimlarning xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** toquvchilik sanoat, kiyim, to'qish, mato, gazlama, paxta, vazifa, konstruksiyalash, modellashtirish, bichish, glad, ip, detal.

Respublikamizning imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari imkoniyati cheklangan o'quvchilarni bilim olish, kasb-hunar egallash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda ta'lim jarayonlarining barcha ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tadbirlarni o'quvchilarning jamiyatdagi, mehnat bozoridagi o'z o'rnini izlash va aniqlashga qaratilishi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda imkoniyatlari cheklangan shaxslarni kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish uzluksiz ta'lim tizimining resurslar, kadrlarga zarur sharoitlar yaratish maqsadida kasb-hunar maktablarida kasbga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlaridan kengroq foydalanish talab etiladi. O'quvchilarni mustaqil ravishda zamonaviy fikr yuritgan holda kasbiy faoliyat yo'nalishlarini tanlash va amalga oshira olish uchun quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari lozim. To'quvchilik to'garaklarning samarasi mahsulot sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, mahsulot sifatini kam harajat evaziga oshirish tadbirlari ishlab chiqarilgan va rag'batlantirilgan. "Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur manba va mablag'larni topish – bu har bir korxona rahbari va mutaxassis-texnik xodimlarning birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi majburiyati bo'lmog'i kerak".

To'garaklar sifatini boshqarish faoliyatida doimiy ravishda ishlab, to'garak a'zolarining bilim va mahoratlarini o'sishiga qo'llangan holda imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni kelajakda o'z-o'zlarini qobiliyatlariga ko'ra ish faoliyatlarini yo'lga qo'yishda oz bo'lsada yordam bo'lishi uchun to'garaklarni tashkil etish lozim. Maxsus texnikumimizda to'garaklarni tashkil etish keng tadbiq etilgan. Bunda o'quvchilarni to'garaklarga jalb etish, amaliyotda esa to'qilayotgan har bir buyumlarni nozik his qiladigan, yetuk mutaxassis kadr qilib yetishtirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Date: 7<sup>th</sup>January-2025

Bizning o'quvchilar darslar va to'garaklarga alohida qiziqish bilan yondashadi. Bizning maxsus texnikumimizda har xil to'garaklar faoliyat yuritib kelmoqda. To'garaklarda har bir o'quvchi o'zлari qiziqqan to'garaklarga qatnashadilar. Shulardan biri to'quvchilik to'garagi bo'lib, o'quvchilarimizga kiyimning har xil turda qo'lда to'qish sir asrorlarini o'rgatib borishga harakat qilamiz. Bunda to'garakning ahamiyati beqiyos, hozirgi zamonga mos keladigan kiyimning sir asrorlarini mukammal o'rgatiladi.

Ayniqsa, imkoniyati cheklangan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ular bilan olib borilayotgan to'garaklarning alohida o'rni, ahamiyati bor. Bu borada imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar o'ziga xos mas'uliyatni talab etadi. O'quvchilarni to'garaklarga jalb etishning bиринчи qoidasiga ko'ra avvalo, o'qituvchi yoki tarbiyachi o'quvchining mehrini qozona olishi kerak. Tarbiyaning bosh yordamchisi bu mehrdir. Bolaga ko'rsatilgan mehr shak-shubhasiz uning tarbiyasi, o'rganadigan bilimining samarasidir.

O'quvchining to'garak mashg'ulotlarida faol bo'lishi, qiziqishlarining o'sishida uning o'z kuchiga ishonishi katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchining dadilligi, jur'atliligi va o'ziga bo'lган ishonchi uning uchun ulkan baxtdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar huddi erkatoy va o'ta g'amxo'rlik ko'rsatilgan bolalar kabi o'ziga bo'lган ishonchini yo'qotishiga yo'l qo'yilmasligimiz kerak. Har qanday sharoitda ham bola o'z o'qituvchisiga, unga to'garak mashg'ulotlarini o'tayotgan ustoziga suyanishi kerak. To'garak mashg'ulotlarini olib borishda maqtov va rag'bat eng afzal intizomiy choradir. Agar o'quvchi to'garak mashg'ulotlariga qiziqish bildirmasa, unga mashg'ulotning qanchalik afzal ekanligini tushuntira bilish, qiziqtirish va amaliyotga jalb qilish kerak.

Har bir ishlab chiqarish ta'lim ustasi o'quvchining iqtidoridan kelib chiqqan holda ular bilan yakka tartibda ishlashga harakat qiladilar. To'garaklar faoliyatini yanada kengaytirish, o'quvchilarni xohlagan sohaga qiziqtirish, o'z kasbini yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga oz bo'lsada o'z hissasini qo'shish har bir pedagog kadrning muhim vazifadaridan biridir.

Ma'lumki, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni to'quvchilik kasbiga o'rgatish amaliy ta'lim mazmunini tashkil etish, har bir kishidan matonat, metin-iroda va albatta, har qanday holatda ruhan tayyorgarligini talab etishni inobatga olsak, imkoniyati cheklangan o'quvchilarga bu borada ikki hissa ortiq harakat talab qilinishini anglash mumkin, buning uchun o'quvchilarda quvonch hissini uyg'otish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz imkoniyati cheklanganlarga qancha g'amxo'rlik qilsak, hayotga, turli xil kasblarga qiziqish uyg'otsak, ular o'z kasbiga mehr qo'yadilar. To'g'ri ta'lim-tarbiya bersak, yaxshi kasb o'rgatsak, jamiyatda o'z o'rnini topib keta oladigan, Vatanni sevuvchi, uni himoya qila oladigan ma'naviy barkamol avlod safi kengayadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. X.X.Maqsudova. "Barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni va roli."

Date: 7<sup>th</sup>January-2025

2. N.Mansurova.“Yoshlarni islom madaniyati va ma’naviyati asosida tarbiyalash”.
3. Kasbiy fanlar metodikasi. Manaviy-ma’rifiy, ilmiy metodik nashr 2011yil.
4. Kollejlardagi to‘quvchilik to‘garagiga o‘quvchilarning qiziqishi.2010yil Toshkent
5. “To‘quvchilik” to‘garak mashg’ulotidan olingan fikr mulohazalar. Farg’ona 2009.
6. Internet sahifalari